

## VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNING SHAKLLANISH SABABLARI

*Xasanova Mo'mina Sa'dullayevna  
Toyloq tuman "Inson" ijtimoiy  
xizmatlar markazi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Suitsid holatlarini qayd qilib boruvchi dunyodagi eng katta institut Shvetsiyada joylashgan bo'lib, uning hisob-kitoblariga ko'ra Markaziy Yevropa davlatlari bu borada peshqadam ekanligini ta'kidlashmoqda.

Mazkur maqolada yuqori suitsidal xavf-xatarga ega bo'lgan depressiv holatlar sifatida bolalar varianti (6-12 yosh) da sodir bo'lish va ularda depressiya past darajada ifodalanishi, zo'riqish unchalik kuzatilmasligi, bolalar sustkash, charchoqdan arz qilishlari, ta'sirchan, qaysar bo'lib qolishlari qayd qilinadi. Bunday bolalarni o'yinlarida "ko'mish" marosimi yaqqol ko'rindi (o'yinchoqlar va uy hayvonlarini ko'mish; rasmlarda mozor, tobutlarni ifodalanishi, o'zining ko'milishi bilan bog'liq fantaziyalar). Bunday yoshdagi suitsidal harakatlar ko'pincha o'lim bilan tugaydi. Sababi endogen kasalliliklar.

Arzimagan nizo ham suitsidal harakatlarni keltirib chiqaradi. Deviant varianti - (10-12-14 yosh) ilgari xos bo'limgan buzilishlar; zo'riqish, chekish, ichish, daydilik, intizomsizliklar, kayfiyatsizlik-isyon va namoyishkoronalik deb tushiniladi.

**Kalit so'zlar:** Deviant, xudkushlik, haqiqiy suitsid, demonstrativ suitsid, noma'lum suitsid, affect, qo'rquiv, xavotir, nafrat, qahr-g'azab, quvonch, baxt, yosh inqirozi.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida yangi-yangi buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, bu globallashuv odamlarni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishi kerak. Ta'lim tizimida ijtimoiy-psixologik muhitni, psi-xologik xavfsizlik tizimini yaratish nima uchun dolzarb ekanini bilasizmi? Chunki bugungi keng qamrovli ta'lim bir paytning o'zida o'quvchi shaxsining muammolarini yechishga yordam berishi lozim. Kuchli tayyorgarlikka ega o'qituvchi, ayniqsa mакtab psixologi, bolaning xulqi buzilishi oldini olishda asosiy rolga ega bo'lishi mumkin. Buni vaqtida anglamaslik esa yoshlar, ayniqsa o'smirlar ruhiyatidagi o'zgarishlarning xavfli jihatlari bilan namoyon bo'ladi. O'smirning o'z joniga qasd qilishi ana shu xavfning eng cho'qqisi, deyish mumkin.

Xo'sh, o'smir nega o'z joniga qasd qiladi? Bunga asosiy sabablar nima va aybdori kim? Yoshlarga shuncha e'tibor qaratilishiga qaramay nega hamon yoshlar, o'smirlar orasida suisid (o'z joniga qasd qilish) holatlari uchramoqda?

Mamlakatimizda o'smirlar bo'yicha olib borilgan psixologik tадqiqotlar shuni ko'rsatdiki, pedagoglar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar suisidal xulq-atvor shakllari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Aslida o'z vaqtidagi ko'rsatiladigan psixologik yordam, o'smirlarni hayotning har qanday vaziyatlariga astoydil tayyorlash – bunday noxush holatlarning oldini olishi shubhasiz. Dunyoda minglab yoshlar o'z joniga qasd qiladilar. Bugungi kunda yoshlarning o'limi sabablaridan biri – suitsiddir. Har yili *10-sentyabr* Butun Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti Davlatlararo suitsidlarning oldini olish assotsiatsiyasi (Association for Suicide Prevention) ko'magi bilan Butun Jahon Suitsidlarning oldini olish kuniga bag'ishlab tadbir o'tkazadi. (World Suicide Prevention Day).

Dunyo bo'yicha har 40 soniyada 1 kishi o'z joniga qasd qiladi. Bu haqda Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining o'z joniga qasd qilishni oldini olish bo'yicha tashkiloti xabar beradi. Butun Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra suitsidlik holati bo'yicha o'limlar soni yiliga millionga yetmoqda. Tendensiya shu darajada oshaversa 2020-yilga kelib xudkushlikning soni bir yarim baravarga ko'payadi.

Bundan tashqari, hali aksariyat suitsidlar ro'yxatga olinmagan. Ko'pgina ota – onalar qizim yoki o'g'lim o'z joniga qasd qildi deb kerakli tashkilotlarga murojaat qilishmaydi. Buni tabiiy o'lim deb qabul qilishadi. Chunki, farzandlarining o'z joniga qasd qilishi bu ular uchun isnod.

Suitsidning 3 turi mavjud: 1 tur – haqiqiy suitsid – hech narsaga qaramay o'z joniga qasd qilish. Bunday holatda suitsidga qo'l uruvchi aniq vaqtini, joyni oldindan belgilab qo'yadi. 2 tur – demonstrativ suitsid – asosiy maqsad o'z joniga qasd qilish emas, balki e'tiborni tortish va atrofdagilarni qo'rqitish bo'ladi. Bu usulda suitsident oldindan ehtiyyot choralarini ko'rib qo'yadi. 3 tur – noma'lum suitsid – bu usulda hech qanday sababsiz o'z joniga qasd qilish tushuniladi. Aytaylik ekstremal ishlar, ekstremal sport bilan shug'ullanuvchilarda shunday hol ro'y berishi mumkin. Ular o'lim xavfi borligini bilib turib, yana shunday ishlarga qo'l urishadi. Statistika shuni ko'rsatyaptiki, har 5 o'smirdan bittasi o'z joniga qasd qilish haqida jiddiy o'ylaydi. Sayyoradagi o'z joniga qasd qilishlarning uchdan ikki qismi past va o'rtacha daromadli mamlakatlarda sodir bo'ladi. Jahonda 15-29 yoshli yigit-qizlarning o'limi sabablari ichida o'z hayotiga qasd qilish ikkinchi o'rinda turadi.

Suitsidal holat 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan kishilarda ko'p uchraydi. Oxirgi 10 yillikda esa suitsidga qo'l uruvchilar asosan 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'smirlardir. Suitsid o'limlarining keng tarqalishiga mamlakatlarning rivojlanib

borishi ham sabab bo'ladi. Bunda Sharqiy Yevropa yetakchilik qiladi. Yaponiyada har yili taxminan 30 ming kishi o'z joniga qasd qiladi.

Eng kam ko'rsatkichlarni Lotin Amerikasi hamda musulmon davlatlarida ko'rish mumkin. Biroq Afrika davlati bo'yicha statistik ma'lumotlar umuman uchramaydi.

Butun Dunyo Sog'liqni Saqlash tashkiloti barcha mamlakatlarni suitsidlar soniga qarab uch guruhg'a bo'lgan: - Eng past bosqich 1 yilda 100 ming nafardan 10 kishi; Gresiya, Italiya, Gvatemala (0.5), Albaniya (1.4), Armaniston (1.3). - O'z-o'zini o'ldirishning o'rta bosqichi 1 yilda 100 ming nafardan 20 kishi. Avstraliya, AQSh. - O'z-o'zini o'ldirishning eng yuqori bosqichi 100 ming nafar aholidan 20 va undan yuqori. Latviya (42.5), Litva (42.1), Estoniya (38.2), Vengriya (35.9). Hozirgi kunga kelib Rossiya ushbu guruhlarning eng yuqori bosqichiga to'g'ri keladi. Uning ko'rsatkichi 39 dan 60-70 ga qarab ko'tarilmoqda. 2010-yilga kelib Rossiya o'z-o'zini o'ldirishlar bo'yicha 1-o'ringa ko'tarilgan.

Hozirgi vaqtida suisidal ahloq global jamoatchilik muammosi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga qaraganda yer yuzida har yili 1 million 100mingga yaqin odam o'z joniga qasd qilish bilan o'z hayotiga yakun yasaydi.

Ba'zan odamlar o'zlarini yashashning qiyinligi va imkoniyatsizligi sabab bo'lgan ekstremal vaziyatlarda: masalan, konsentrasiyon lagerlardagi shafqatsiz sharoitlarda, qiy Nash, azoblash, xo'rash va ochlik ta'siri ostida o'zlarini o'ldirishga urinadilar. O'zini-o'zi o'ldirish to'g'risida fikrlarga shuningdek, chidab bo'lmaydigan og'riq beruvchi og'ir, davosiz kasalliklar saraton vaba'zi boshqa kasalliklar ham olib kelishi mumkin. Agar bunda ong xiralashmasdan qolgan bo'lsa, unda azob-uqubatlarga barham berish haqida tabiiy istak paydo bo'ladi. Ko'pincha o'zini o'zi o'ldirishlar va ularning urinishlari turli depressiyalar, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Ulardan eng ko'p tarqalgani yolg'izlik, sherigi yoki yaqin kishisini yo'qotish, muvaffaqiyatsizlik yoki toptalgan mavqeい, obro'sizlantiruvchi vaziyat, hayotiy manbaini yo'qotish, bankrotlik va hokazolardir. Demak, o'zini saqlash instinktining buzilishi va o'zini o'ldirish istagi, bir tomondan sub'ye ktning ruhiy faoliyatidagi qanday o'zgarishlar chuqur affektga olib kelishiga, ikkinchi tomondan esa - ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Aslida, his-hayajonli-affektiv ta'sirchan registrni «yoqib qo'yish» nafaqat ruhiyatning chuqur, balki onggacha bo'lgan yanada yuqoriroq darajadagi tuzilmasidan kelib chiqadi. Shunday qilib, bu o'rinda his-hayajonli ta'sirchanlikning murakkab apparati mavjudligi to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu ta'sirchanlikning darajalari chuqurroq (qo'rquv, xavotir, nafrat, qahr-g'azab, quvonch, baxt) yoki nozikroq (qayg'u, g'amginlik, estetik tashvishlar va hokazolar) bo'ladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'z joniga qasd qilish shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi natijasi hisoblanib, bunda odam ushbu yuzaga kelgan sharoitlarda bundan buyon o'zi uchun mavjud bo'lish imkoniyatini ko'rmaydi. Shaxs

dezadaptatsiyasining ehtimoliyligi jamiyatdagi ijtimoiyiqtisodiy beqarorlik davrlarida ob'yektiv ravishda ortadi, bu esa o‘zini o‘zi o‘ldirish statistikasida o‘zining haqiqiy aksini topadi. Ayniqsa, ijtimoiy ko‘tarilish pasayish bilan almashganda «umidlarni yo‘qotish vaqt» keskin bo‘lib qoladi, bu esa jamiyat ongingin krizisini chuqurlashtiradi, jamiyat a’zolariga zulmkor ta’sir o‘tkazadi va uning zaifroq a’zolarining ixtiyoriy ravishda hayotdan voz kechishiga yordam beradi. Bu esa tanazzulni boshidan o‘tkazayotgan va rivojlanish istiqboliga ega bo‘lmagan jamiyatda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Dezadaptatsiyaning keskin holati og‘ir kasalliklar, hayotdagi omadsizliklar, yaqin odamini yo‘qotish oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Har qanday holatda shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi og‘irligi va chuqurligini baholashning uchta tarkibiy qismini ko‘rib chiqish mumkin: - odatiy turmush sharoitlarining jiddiy buzilishi; - ularning inson tomonidan talqin qilinishi (hayotiy sinish, ilojsiz vaziyat, shaxsiy halokat yoki og‘ir, lekin o‘tib ketuvchi holat); - moslashish uchun istak yoki harakat qilishga tayyorlik (hayotdan charchash, «hayotni qayta boshlash»ni istamaslik, bu haqda kelgan fikrdan nafratlanish yoki hayotiy yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqishga tayyor turish, vaziyatni uddalash). O‘zini o‘zi o‘ldirish o‘z ahamiyati va psixologik sabablariga ko‘ra farqlanadi. Ular negizida ko‘pincha ongli yoki ongsiz ravishda yaqin insonlariga bo‘lgan tuyg‘uga yoki jamoatchilik fikriga apellyasiya-sabab, atrofdagilardan yordam va madad olishga intilish yotadi. Bu holda o‘z joniga qasd qilish harakatlari namoyishkorona tus olishi, haqiqiy yoki taqlid bo‘lishi yoki shantaj (qo‘rqtish) bo‘lishi mumkin. Ular ko‘pincha birovning ko‘zi oldida yoki birontasi kelib qolishidan bir necha daqiqa oldin sodir etiladi, ularning usuli ko‘pincha jiddiy tahdidni ifodalamaydi – uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda dori tabletkalari qabul qilinadi, teri uncha chuqur bo‘lmagan darajada kesiladi, ingichka yoki eski arqon qo‘llaniladi, eshiklar ochiq qoldiriladi

Suitsidal harakatlarni amalga oshirish ehtimoliga turli-tuman omillar ta’sir etadi: odamning individual psixologik o‘ziga xosliklari va milliy urf-odatlar, yoshi va oilaviy holati, madaniy qadriyatlar va psixofaol moddalarni qabul qilish darajasi, yil fasllari va h.k.

Bolalar va o‘smirlardagi suitsidal axloq kattalarning xatti– harakatlari bilan o‘xhash bo‘lib, yoshga xos ravishda ajralib turadi. Bolalarga yuqori darajadagi ta’sirchanlik va ta’sirga berilish, yaqqol his etish va siqilish, kayfiyatning noturg‘unligiga moyillik, tanqidning sustligi, egotsentrik intiluvchanlik, qaror qabul qilishdagi impulsivlik xosdir. Ko‘pincha, bolalar va o‘smirlarda o‘zini o‘ldirish g‘azab, qarshilik, adovat o‘zini yoki boshqalarni jazolashdan kelib chiqadi. O‘smirlik davriga o‘tishda o‘zini-o‘zi tahlil qilishga, atrof olamni va shaxsini pessimistik baholashga yuqori moyillik paydo bo‘ladi. Ko‘pincha suitsidga olib boradigan emotsiyonal noturg‘unlik, hozirgi vaqtida sog‘lom o‘smirlarning chorak qismining yosh inqirozi varianti hisoblanadi.

Suitsidal faollikning har qanday belgisi bor, o'smir doimo kattalarning kuzatuvida bo'lishi kerak, albatta, bu kuzatuv jonga tegmaydigan va me'yorda bo'lishi zarur.

Bolalar va o'smirlardagi depressiv holatlar va suitsidal xulq-atvor belgilarini bilish suitsidal xatti-harakatlarning oldini olish va aniq tashxis qo'yib, psixologik yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Quyidagi holatlar o'z joniga qasd qilish xavfini keltirib chiqarishi mumkin:

- shaxslararo munosabatlari buzilgan o'smirlar "yolg'izlar";
- deviant va delikvent axloq bilan ajralib turuvchi, spirtli va narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilar;
- uzoq davom etayotgan depressiv holat;
- o'zini-o'zi o'ta yuqori darajada tanqid qiluvchilar;
- kamsitilish yoki yaqin kishisini yo'qotishdan, surunkali yoki oxiri o'lim bilan tugovchi kasalliklaridan azoblanayotganlar;
- frustratsiya;
- kasalliklardan yoki atrofdagilarni tashlab ketganligidan azoblanuvchilar;
- ijtimoiy muvaffaqiyatsiz oilalar–oiladan ketish yoki ota-onalarning ajralishi;
- suitsid sodir bo'lgan oila farzandlari.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. N.Tayloqov. Voyaga yetmaganlarga o'rtasida suisid holatlarini oldini olish. Metodik qo'llanma. Toshkent 2017
2. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy jurnali (2023 yil №3) ISSN 2181-1709 (P)